



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektori**
H.A.Xushvaqto
11 - noyabr 2025-yil

**09.00.01 – ONTOLOGIYA, GNOSEOLOGIYA VA MANTIQ IXTISOSLIGI
BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2025

Annotatsiya:

09.00.01. – Ontologiya ta'limot sifatida falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi soha. Ontologiyada voqeylik va olam nihoyatda keng ma'noda ishlatiladi. Hozirgi zamon tabiatshunosligidagi yutuqlar, bugungi kundagi ontologik qarashlarning kulamini kengaytirib yubordi. Insonning aql orqali erishiladigan borliq narsalar olamining shakl va mohitini yana-da chuqurlashtirdi. Nafaqat borliq, balki ma'naviy borliq, ruhiyat, yo'qlik kabi tushunchalar ham ontologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Borliq haqidagi ta'limot, falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarni o'rganuvchi sohasi. Ontologiya qadimgi yunon falsafasidayoq u yoki bu obyektlarning borlig'i, borliqning o'zi haqidagi ta'limot sifatida ajralib chiqdi. Eski va hozirgi zamon ontologiyasining bir-biridan farqi. Zamonaviy ontologiyadan voqeylik va olam tushunchalarning nihoyatda keng ma'noda ishlatilishi. Borliq haqidagi tasavvurlarning rivojlanish xususiyatlari. Eski ontologiyada borliq, mexanistik, metafizik, materialistik talqin etishda moddiylik bilan aktual mavjudlik bilan va reallik bilan aynanlashtirib qo'yilganligi. Borliq aslida barcha narsa va hodisalarni, ilgari mavud bo'lgan, hozir mavjud bo'lib turgan va kelajakda mavjud bo'lib turadigan realliklarni moddiylik va ma'naviylikni, modda va g'oyani ham o'zida qamrab olishi.

Tuzuvchilar:

Samadov A.R.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professor
Sultanova G.S.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası professori, falsafa fanlari doktori, professor
Jo'rayev L.N.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori, dotsent

Dastur Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetining 2025-yil 30-avgustdagi 01-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni xalq etish, xalkimiz ma'naviy me'rosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli goyalardan saklash, ularni falsafiy bilimlar bilan kurollantirish zarurligi bilan belgilanadi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba'zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo'lmokda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorchilik, ekstremizm, narkotrafik kabi illatlarning xamda o'ta xavfli yukumli kasalliklarning kupayishiga olib kelmoqda".¹

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Falsafa fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Mazkur fanning mohiyatini o'rganishimiz jarayonida, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o'zini qurshagan dunyoni va o'z-o'zini anglab etishida qanday rol o'ynashini tushuna boshlaymiz. Shu bois falsafaga yaxlit munosabatni unda ko'tarilgan masalalarning teranroq va to'liqroq talqinini mazkur dastur mazmunida ifodalashga harakat qilindi.

Mazkur dasturning birinchi bo'limida falsafaning mohiyati, rivojlanishining asosiy boskichlari va yo'nalishi haqidagi masalalarga e'tibor qaratilgan. Ikkinchi bo'limda borliq falsafasi, falsafada substansiya va materiya muammosi, harakat va rivojlanish, fazo va vaqt, tabiat falsafasi va inson borlig'i muammolari o'rin olgan.

Uchinchi bo'limda rivojlanish masalalari o'zaro aloqadorlik va taraqqiyot, falsafa qonun va kategoriyalarining eng umumiy jihatlarini yoritish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

To'rtinchi bo'lim bilish falsafasi, hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari, falsafada haqiqat muammosi, nazariya va amaliyotning

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йулимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. — Т.: «Ўзбекистон», 2017. — Б. 45.

birligi, metod va metodologiya, axborotlashuvning falsafiy asoslari, tushunish va tushuntirish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Beshinchi bo'limda ijtimoiy falsafaning muhim muammolari – jamiyat falsafasi, tarix falsafasi, falsafiy antropologiya, faoliyat falsafasi, ijtimoiy prognozlashtirish va globallashtirishning falsafiy masalalari yoritildi.

Oltinchi va yettinchi bo'lim bevosita yosh doktorantlarning professionallasuvi bilan bog'liq masalalar xususan fan falsafasining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari va ilmiy tadqiqotni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarning yoritilishiga karatilgan.

Sakkizinchi bo'lim logika fanining asosiy tushunchalari va tamoyillari bilan bog'liq masalalarni, shuningdek, mantiq ilmining rivojlanish bosqichlariga oid masalalarni qamrab oladi.

Dasturda falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashildi, nazariya va amaliyot uyg'unligiga alohida e'tibor qaratildi.

Dasturning maqsadi – zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va analitik fikrlash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Dasturning vazifalari:

falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o'rganish orqali hayotda o'z o'rnini topish;

o'zining eng oliy maqsadiga erishish yo'lida maqsadli faoliyat olib borish;

jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;

o'z-o'zini ma'naviy ahloqiy tarbiyalash;

jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etishhissini tarbiyalash

1-BO'LIM

FALSAFIY TAFAKKUR SHAKLLANISHINING MEZONLARI ENG QADIMGI FALSAFIY QARASHLAR DINAMIKASI

Sharq – jahon sivilizatsiyasining ilk markazlaridan biridir.

Kadimgi Misr, Shumer, Akkad va Bobilda vujudga kelgan ilk yozma falsafiy yodgorliklar. Tabiat xodislari va inson mohiyati to'g'risidagi dastlabki falsafiy bilimlar. Qadimgi Shumer yozuvlarida tangriga e'tiqod g'oyasi.

Qadimgi Misr va Bobilda astronomik, matematik, geometrik fanlar kurtaklarining paydo bo'lishi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasini o'rganish manbalari. Qadimgi Misrsivilizatsiyasining asosiy yutuqlari.

Germes Xudosiga qadimgi Misr, Ellin va Rimdagi munosabat. Tot qadimgi Misr va donishmandlik va yozuv kitobi. Germesning funksiyalari.

Tabiat kuchlari haqidagi mifologik tasavvurlar va falsafiy fikrlar. Markaziy Osiyodagi qadimgi falsafiy qarashlar: suv, olov, tuproq va havoga e'tiqodlarning shakllanishi (Jaytun madaniyati m.a. 4 ming y, va Kalta minor madaniyati m.a. 3-2 ming y). Olovparaslik va tuproqparaslik g'oyalarining shakllanishi.

Markaziy Osiyoda ilk falsafiy g'oyalar. Afsona, doston singari xalq og'zaki ijodi va yozma yodgorliklaridagi falsafiy g'oyalar. «Avesto» - Zardushtiylarning - muqaddas manbasi uning yozilishi va mazmuni. Qadimiy, turkiy yozuvlardagi falsafiy va axloqiy g'oyalar. Markaziy Osiyoda budda falsafasi va uning Xitoy va Hindistonga yoyilishi. Manixeylik va mazdakiylik, ta'limotlarining g'oyaviy mazmuni.

Mifologiya va qadimgi madaniyat shakli. Mif dastlabki dunyoqarash shakli. Mifologiyaning antropomorfizm, obrazlilik, sinkretik, genetik, simvolli xarakteri. Mifning asosiy guruhlari va dunyoning mifologik manzarasi. Falsafa paydo bo'lishining turli konsepsiyalari.

Naturfalsafa va sofistlar. Tabiatning stixiyali talqini, sababiya g'oyasi, Qadimgi Yunon falsafasi. Tafakkurning ratsionllashuvi. Pifagorchilar eleatlar, Empedokl va Anaksagor plyuralizmi. Atomistika. Sofistika va sofistlar. Platon davlat xaqida.

Qadimgi Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda ilk falsafiy qarashlarning shakllanishi.

Dunyoqarash tushunchasi va uning asosiy shakllari. Dunyoqarashning intellektual, emotsional va ruhiy asoslari. Dunyoqarashning tuzilishi: dunyoni sezish, dunyoni idrok etish, dunyoni tushunish. Dunyoqarashning shakllanishiga ijtimoiy muhitning tasiri.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mif, din, falsafa, fan. Mifologiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Dinning asosiy funksiyalari. Dinning psixologik, gnoseologik, ijtimoiy va siyosiy ildizlari. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari: (feteshizm, animizm, totemizm, magiya).

Falsafiy dunyoqarash va uning nazariy va amaliy asoslari. Dogmatizm va skeptizm dunyoqarashning ikki yo'nalishi. Etnik dunyoqarashning mohiyati.

Fan dunyoqarash shakli. Falsafa va fanning mutanosibligi va farqi. Ssientizm va antissientizm.

FALSAFANING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

Falsafa fanining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari. Falsafaning predmeti va uning o'zgaruvchan xarakteri. Falsafiy bilimning tuzilishi. Falsafaning yangi sohalari. Falsafaning asosiy masalalari. Falsafani siyosiylashtirishning oqibatlari. Falsafada shubhaning o'rni. Falsafaning funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Falsafaning ijodiy va dunyoviy xarakteri.

Falsafa madaniyatlar tizimida. Falsafa va san'atning o'zaro aloqasi va farqi. Badiiy asarning falsafiy mohiyati. Obektiv reallikning badiiy obrazlardagi ifodasi. Falsafa va dinning o'zaro aloqasi va farqi. Diniy bilimning o'ziga xos xususiyatlari. Tafakkur madaniyati va falsafiy tafakkur madaniyati haqida.

2-BO'LIM

BORLIQ VA RIVOJLANISH FALSAFASI ONTOLOGIYA – BORLIQ HAQIDAGI FAN

Borliq falsafasining predmeti. Ontologiya tushunchasi. Borliq kategoriyasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida falsafa va din sintezi. Noklassik falsafada borliq muammosi. Borliq va mavjudlik. Borliq tushunchasining etimologiyasi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliqning shakllari: tabiat borlig'ini falsafiy tushunish. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Manaviy borliq: individuallashtirilgan va obektivlashtirilgan borliq. Ijtimoiy borliq. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Yer tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Birlamchi va ikkilamchi tabiatning o'zaro mushtarakligi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Jonli narsaning jonsiz narsaga bog'liqligi. Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Substansiya muammosi. Substansiya va substrat tushunchasi. Substansiya va aksidensiya. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Materialistik va idealistik monizm. Materiya tushunchasi va uning funksiyalari. Materiyaning tashkil topish darajalari: mikro-makro-mega olamining tavsifi.

Dunyoning fazo va vaqtdagi cheksizligi. Intensiv va ekstensiv, aktual va potensial cheksizlik. I.Kantning kosmologik antinomiyalari va ularning hozirgi talqini. Olamning cheksizligi g'oyasining falsafiy asoslari. Relyativistik kosmologiyada olamning cheksizligi muammosi. Olamning kosmologik modellari. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Kengayuvchi olam gipotezasi.

Fazo va vaqt borliqning fundamental shakllari. Fazo va vaqtning substansial, relyatsion, dinamik va statistik konsepsiyalari. Borliqning turli darajalaridagi (jonsiz va jonli tabiatda, jamiyatda) fazo va vaqtning o'ziga xos xususiyatlari. Mikrodunyo, makrodunyo va megadunyoda fazo va vaqt. Fazo va vaqtning metrik va topologik xususiyatlari.

Falsafa tarixi va tabiatshunoslikda fazo va vaqtga nisbatan yondashuvlarning rivojlanishi. Ijtimoiy fazo va ijtimoiy vaqt. Tarix vaqti ijtimoiy vaqtning oliy darajasi. Davrning ruhi va ijtimoiy vaqt uyg'unligi.

Harakat tushunchasi. Materiya va harakat birligi. Qadimgi dunyo falsafasi harakat va sokinlik haqida. Geraklitning abadiy harakat va rivojlanish g'oyalari.

Platon, Aristotel va Ibn Sinoning harakat mavjudligi haqidagi g'oyalari. Zenonning harakatni inkor etuvchi aporiyalari.

“Materiya harakatining shakli” tushunchasi. Materiya harakati shakllari klassifikatsiyasi. Materiya harakat shakllarining sifatiy xususiyatlari va o‘zaro aloqasi. Harakatning ma’naviy shakli haqida. Ong – ma’naviy harakat shakli sifatida.

Tabiat tushunchasi. Tabiat tushunchasining keng va tor ma’nosi. Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Geografik muhit va geografik muhit predmetlari tushunchasi. Geografik maktablar. Geografik determinizm, ijtimoiy determinizm, geosiyosat. Tabiiy qonunlar konsepsiyasi. Ekologik ong va invayromentalizm tushunchasi.

Biosferaning rivojlanishi haqida. Inson biosfera rivojlanishining zaruriy bosqichi. Ekodinamikani global, mitaqaviy va mahalliy miqyoslarda rivojlantirish. Ekodinamikaning ayrim usullari. Sun’iy ehtiyojlarni qondirishga qaratigan xo‘jalik faoliyati. Gen injeneriyasi va uning ijtimoiy ma’naviy oqibatlarini.

Noosfera – insoniyat geologik kuch sifatida. Noosfera – dunyo va koinot rivojlanishidagi evolyusion sakrash. Uni anglashda gumanizmga asoslangan ilmiy tafakkurning ahamiyati.

O‘ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH HAQIDAGI TA’LIMOT

Rivojlanayotgan dunyoning yaxlit nazariy obrazini yaratishning zarurligi. Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari: stixiyali dialektika; idealistik dialektika; materialistik dialektika; klassik dialektika; ob’ektiv va sub’ektiv dialektika; noklassik dialektika. Dialektika va metafizika. Metafizika – olamni falsafiy anglash ta’limoti.

Dialektikaning asosiy tamoyillari: olamning birligi (yaxlitligi), umumiy aloqadorliklar, kauzallik (sababiyat), rivojlanish tamoyillari.

Narsa tushunchasining mazmuni. Narsa – o‘zini boshqa narsa bilan bog‘lovchi ular bilan o‘zaro ta’sirga kirishish imkonini beruvchi xossalarning yaxlit majmui. Aloqa tushunchasining mohiyati. Dialektika kategoriyalari borliqning universal aloqalarini bilish shakli sifatida. Aloqalar tasnifi bir tomonlama va o‘zaro aloqalar, to‘g‘ri va egri aloqalar, bevosita va bilvosita aloqalar, ichki va tashqi aloqalar. Hajmjiatidan umumiy, alohida va xususiy aloqalar. Mazmun jihatidan genetik, funksional, strukturaviy, energetik, moddiy va informatsion aloqalar. Ichki, zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalar. O‘zaro aloqa. O‘zaro aloqani tushunish – umuman ob’ektni tushunish sifatida. aloqa uchun asos, munosabat va o‘zarota’sir tushunchalari. Aloqaning ob’ektivligi, aloqaning muhimligi, aloqaning zaruriyligi aloqaning barqarorligi, aloqaning umumiyliigi, aloqaning nisbiyligi. Kauzallik – sababiyat, sababiy

bog'liqlik ifodasi. Sababsiz narsa bo'lmasligi. Har qanday sabab oqibatni vujudga keltirishi.

BORLIQNING BARQARORLIGI VA O'ZGARUVCHANLIGI MUAMMOSI

Barqarorlik va beqarorlik tushunchalari. O'zgaruvchanlik va turg'unlik, o'zgaruvchanlik va harakat, o'zgarmaslik va barqarorlik (saqlanish, sokinlik, turg'unlik, muvozanat) tushunchalari. Falsafa tarixida borliqning barqarorligi va beqarorligi haqidagi qarashlar evolyusiyasi.

Hozirgi zamon fanida borliqning beqarorligi haqidagi bilimlarning ortib borishi. Ob'ektlarning barqarorligi va beqarorligi dialektikasi.

Dunyoning falsafiy manzarasida barqarorlik. Barqarorlik va beqarorlik ijtimoiy madaniy jarayonlar omillari. "Madaniyatlar muloqoti". Axborot – materiyaning joni, uning faol tomoni. Ijtimoiy barqarorlik sharoitida ijod va taraqqiyot.

RIVOJLANISHNING UMUMIY QONUNLARI VA KATEGORIYALARI

Qonun tushunchasining mazmuni. Qonun – tizimining elementlari o'rtasidagi umumiy, takrorlanuvchan, zaruriy, barqaror va invariant aloqa.

Qonunning ta'rifi. Voqelik qonunlari. Fan qonunlari. Falsafa qonunlari. Qonunning amal qilish sharoitlari. Bazis qonunlar va lokal qonunlar. Qonuniyatlar – bu qonunning namoyon bo'lish sharti.

Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni – rivojlanishning manbai haqidagi qonun. Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat (kurash)ga doir munosabati. Ziddiyatlar dialektikasi. Ziddiyatlarning turlari. Asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar. Ayniyat va tafovut.

Miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni – rivojlanishning mexanizmini ko'rsatuvchi qonun. Miqdor va sifat, me'yor va xossa kategoriyalari. Me'yor predmet borlig'ining chegarasi. Sakrash bir sifatdan ikkinchi sifatga aylanish vaqti.

Inkorni inkor qonuni – rivojlanishning yo'nalishini ifodalovchi qonundir. Progressiv, regressiv rivojlanish. Taraqqiyot va inqiroz haqida. Inkor va inkorni inkor tushunchalari. Inkor qonunida vorisiylikning namoyon bo'lishi. Rivojlanishning dinamikasi: paydo bo'lish, o'sish, gullab-yashnash, akmening yuqori cho'qqisi, pasayish, qarib- chirish, halokat yoki boshqa holatga o'tish. Rivojlanishning orqaga qaytmasligi. Rivojlanish – kompleks o'zgarish. Kategoriya tushunchasi. Substansional va munosabatdosh kategoriyalar. Yakkalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi. Hodisaning atributlari: narsa va jarayon. Mohiyat va mavjudlik. Mohiyat va hodisa o'rtasidagi dialektik aloqa. Mazmun va shakl. Mazmun va shaklning dialektikasi. Formalizm. Falsafa tarixida mazmun va shakl kategoriyasiga munosabat. Butun va qism. Qismlar o'rtasida aloqaning hususiyati

yaxlitlik. Butunning uch tipi: mexanik butun, uyushgan butun, organik butun. Sistema va element. Struktura va funksiya. Sistema, element, struktura va funksiya kategoriyalari. Sistemaning o'ziga xos xususiyatlari. Sabab va oqibat. Sababiyat. Falsafa tarixida sabab va oqibat to'g'risida xilma-xil qarashlar. Sababiy bog'lanishlar. Sabablarning turlari. Bahona va shart. Sinergetika sababiyat va tasodiflar haqida. Sababiy ketma-ketlik zanjiri. Sabab va oqibat o'rtasidagi dialektik o'zaro aloqa. Zaruriyat va tasodif. Zaruriyat va tasodif dialektikasi. Ehtimollik va tasodif tushunchalari. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatlarning turlari. Real va formal, abstrakt va konkret imkoniyatlar. Imkoniyatning voqelikka aylanishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarning ikki tipi. Erkinlik va zaruriyat.

SINERGETIKA – RIVOJLANISH FALSAFASI

“Sinergetika” tushunchasi o'z – o'zidan tashkillanuvchi sistemalar haqidagi fan. “Sistema” tushunchasi. Ochiq va yopiq, chiziqli va chiziqsiz sistemalar. Sinergetikaning ob'ekti. Sinergetik yondashuvdagi yangilik. XX asrda yagni nazariy va amaliy fanlar kashf etilishi. Sinergetika XX asrning to'rtinchi choragida ko'zga ko'rina boshladi. Sinergetikaning asoschisi Nobel mukofotining lauriyati, Belgiyalik fizik – kimyogar Ilya Prigojindir. G. Xaken o'z – o'zini tashkil etish muammolariga bag'ishlangan birinchi konfirensiyada nutq so'zlagan yil sinergetikaning tug'ulgan yili xisoblanadi. G. Xaken “Sinergetika” asarida u ko'pgina fanlarda – astralogiyadan tortib to sotsiologiyagacha – tizim alohida qismlarning birlashishi makrspkopik tuzulmalar yoki funksiyalarga olib kelinishini kuzatish mumkinligini qayd etadi. Sinergetika o'zining hozirgi xolatida tizim tuzulmalari yoki funksiyalari makro darajada dramatik o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan vaziflarga e'tiborni qaratadi. Tartibsizlik holatidan tartibli holatga o'tishda bu tizimlarning barchasi o'zini o'xshash tarzda tutishi ajablanarli hol bo'lib tuyuladi. Turli tabiatli tizimlarning bir xil o'z – o'zini tashkil etish tamoyillari mavjud, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy aniqlovchilarini topish to'g'risida so'z yuritish lozim. Sinergetika o'z – o'zini tashkil etish, stixiyali, strukturogenez, chiziqsizlik, ochiq tizimlar singari asosli so'zlar yordamida tavsiflanadi. Sinergetika ochiq, ya'ni tashqi muhit bilan modda, energiya va axborot almashuvchi tizimlarni o'rganadi. Dunyoning sinergetik manzarasida ko'pvariantlilik va qaytarilmaslikka asoslangan shakllanish xukm suradi. Borliq va shakllanish bir tushunchaga birlashadi. Sinergetika ilmi fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiyaga o'xshagan maxsus fan bo'lmay, shu fanlarda uchraydigan o'z – o'zidan tashkillanish ilmidir.

3-BO'LIM

GNOSEOLOGIYA – BILISH NAZARIYASI BILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Bilish nazariyasi haqidagi umumiy tushuncha. Bilish nazariyasining predmeti. Bilish falsafiy tahlilning predmeti sifatida. Bilish inson ongida berilgan ob'ektiv reallikning in'ikosi sifatida. Ilmiy bilish, uning mohiyati va tuzilishi. Aniq va aniq bo'lmagan bilimlar munosabati. Bilimlarning asosiy shakllari. Ilmiy bilish dinamikasi. Kundalik va nazariy bilim. Bilishga falsafiy yondashuvning xususiyati. Agnostitsizm va skeptitsizm. Bilish taraqqiyotining umumiy va xususiy qonuniyatlari. Bilishning ichki mantig'i. Hozirgi zamon bilishining xususiyatlari. Bilishga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Bilish, tajriba va amaliyot. "Hamma hamma narsani biladi, ammo hamma hali tug'ilmagan" (Qobus ibn Vashimgir).

Ijtimoiy gumanitar bilim muammo sifatda. An'anaviy gnoseologiyada tabiiyilmiy bilimlarga munosabat. An'anaviy gnoseologiya abstraksiyalari. Bilish faoliyatining qadriyatlarga asoslanganligi. Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikning o'xshash jihatlari va farqlari. Tabiatshunoslikda bilishning o'ziga xos xususiyatlari.

BILISH NAZARIYASI TARAQQIYOTI TARIXI

O'rta asrlar va Uyg'onish davri Yevropa mutafakkirlari ijodida bilish masalalari. O'rta Osiyo va Yaqin Sharqlik faylasuflar bilish nazariyasining xususiyatlari. Al-Kindiyning Sharqona perepatetizmi. Al-Ansoriy gnoseologiyasi. Al-Xorazmiy ta'limotining evristik xarakteri. Farg'oniyning isbotlash uchun fikriy eksperimenti. Imom Buxoriyning haqiqatni aniqlash metodlari. Abu Nasr Forobiyning bilish nazariyasi. Ibn Rushd ta'limotida universallar muammosi. Beruniy ijodida metod muammosi. Ibn Sinoning bilish nazariyasi va hozirgi zamon. Umar Hayyom bilish va yanglishish haqida. Ulug'bek ta'limotida umumiy va xususiy metodlar.

HISSIY, EMPIRIK, NAZARIY, MANTIQUIY VA INTUITIV BILISH DARAJALARI

Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari: sezgi va idrok, xotira, xayol va tasavvur. Empirik bilim va uning shakllari: kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillar. Fikrning hissiylikdan ratsionallikka harakati.

Nazariy bilim va uning shakllari: ilmiy muammo, muammo va masala. Muammoli vaziyatning bilish jarayonidagi roli, gipoteza, tamoyillar, kategoriyalar, paradigmalar.

Tafakkur va uning mohiyati. Tafakkur va borliqning birligi. Tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, mulohaza, xulosa.

Hissiy empirik va ratsional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat. Intuitsiyaning bilishdagi roli.

HAQIQAT MUAMMOSI

Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning falsafiy asoslari. Haqiqatning asosiy shakllari. Haqiqat va adashish, yolgʻon va dezinformatsiya (chalgʻituvchi axborot). Haqiqatni amaliy tekshirish yoʻllarini izlash. Amaliyot – haqiqat mezon. Haqiqatning ziddiyatli xarakteri. Obyektiv haqiqat. Nisbiy haqiqat. Haqiqatning konkretligi masalasi. Haqiqat – subyektiv obrazining obʻektiv mazmuni. Obʻektiv haqiqat va uni baholash oʻrtasidagi munosabat.

Bilimlarning haqiqiyligi va amaliyot mezonini baholash. Relyatizm va dogmatizm haqiqatni bilish haqida. Haqiqatni bilishda dalillarning roli. Hozirgi zamon fanida dalillarning gnoseologik roli va uning bilimlar bilan birligi. Haqiqatni bilishda isbotlash va rad etishning oʻrni.

Haqiqatni bilishda nazariya va amaliyotning birligi. Ilmiy nazariyalar rivoji muammosi. Nazariy bilimlar muammosi dialektikasi. Nazariya taraqqiyotining asosiy sabablari (tashqi va ichki). Nazariy bilimlarning bir biridan farqi va birligi.

Ilmiy bilishda nazariy asoslash muammosi. Nazariya va amaliy dalillarning ziddiyati. Nazariyani formal-matitqiy asoslash darajasi.

Nazariya va amaliyot aloqadorligi va shartlilik muammosi. Ilmiy nazariyani formallashtirish. Fundamental, amaliy va nazariy bilimlarning aloqadorligi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishning oʻziga xos xususiyatlari. Klassik tabiatshunoslik fanlarida rivojlanish muammosi.

4-BOʻLIM

FAN FALSAFASI

EPISTEMOLOGIYA TAFAKKUR MEZONI

Epistemologiya – bilish jarayonini oʻrganuvchi izchil gnoseologiya. Epistemologiya – bilish, hayot va madaniyatni oʻzida mujassamlashtirgan narsalar va hodisalarni oʻrganuvchi fan.

Epistemologiyaning yangilanish jarayonida ilmiy bilimning “*alohida epistemologik maqomi*” haqidagi taʼsavvurlarning shakllanishi. XX asr epistemologiyasi turlari. Epistemologiyaning evolyusion, genetik, naturallashtirgan, gipotetik-deduktiv, kumulyativ, antropologik, tarixiy-evolyusion modellari. Gnoseologiya, epistemologiya va metodologiyaning oʻzaro nisbati. Hozirgi zamon gnoseologiyasida subʻekt va obʻektning mustaqil mavjudligining tan olinishi.

Metodologiyaning maqsadi. Metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va usullari tizimi.

FAN FALSAFASINING PREDMETI

Fan falsafasining obrazini yaratishda gʻarb va milliy falsafa yoʻnalishi sifatidagi fan falsafasi yoki tarix falsafasi. Fan sifatidagi fan falsafasi fani. “*Analitik epistemologiya fan falsafasining oʻzi*”. Fan sifatidagi fan falsafasida falsafiy konsepsiyalar hamda gʻarb falsafasining zamonaviy yoʻnalishi sifatidagi

fan falsafasi doirasida o'tkazilgan nazariy tadqiqotlarning ta'siri. Ko'tarilgan mavzuni konkretlashtirish va mazmunan mufassallashtirishning hozirgi zamon fan falsafasiga xosligi. Fan falsafasining tabiatshunoslik yoki ijtimoiy - gumanitar fanlarni o'rganishidan qat'iy nazar, tarixiy, ijtimoiy – madaniy bilim maqomiga egaligi. Fan falsafasining fashunoslik sohalari bilan o'zaro nisbati. *Fan sotsiologiyasi. Fanshunoslik* - fanlar rivojlanishi va faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan. *Fan falsafasining bosh muammosi* – ilmiy bilimlarning o'sishi muammosi.

Fan falsafasi muammolarining asosiy tarmoqlari.

Fan falsafasining tabiati haqidagi tasavvurlar tipologiyasi. Fan falsafasining ssientistik va antissientistik yo'nalishlari. Fan falsafasining ssientistik yo'nalishi. Fan falsafasining K.Xyubner, T.Rozzak va P.Feyerabend nomlari bilan bog'liq antissientistik yo'nalishi. Fan falsafasi bilan ilmiy bilimni metodik tahlil qilish vazifalari. Fan falsafasining tabiati haqidagi tipologiyasi. Fan falsafasi ilmiy nazariyalarga muvofiq va ularga asoslanuvchi dunyoqarash. Fan falsafasi fan tushunchalari va nazariyalarini eksplikatsiya qilishning nazariy usuli.

Fan falsafasi doirasida qo'llaniladigan metodlar va prinsiplarning unversalligi muammosi. An'anaviy fan falsafasining o'rnini *kognitiv fan sotsiologiyasi* egallashi haqidagi g'oyalar.

DUNYONING ILMIY MANZARASI VA UNING EVOLYUSIYASI

Dunyoning ilmiy manzarasi tuzilishi. *Tizimlilik* dunyoning ilmiy manzarasining xususiyatlaridan biri. Dunyoning ilmiy manzarasining *paradigmal* xususiyati. Dunyo ilmiy manzarasining birlashtiruvchi *normativ, psixologik* funksiyalari. Dunyoning hozirgi ilmiy manzarasi evolyusiyasi. Dunyoning klassik ilmiy manzarasida haqiqiy bilimga ega bo'lish imtiyozi. Dunyoning klassik ilmiy manzarasida «ontos» masalasi. Dunyoning noklassik ilmiy manzarasida termodinamikaning boshlang'ich nazariyalari. Dunyoning hozirgi zamon postnoklassik manzarasida ijtimoiy tuzilmalarni tahlildan o'tkazish ochiq chiziqsiz tizimlarni tadqiq qilishi. Postnoklassik metodologiyada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alati attraktorlar, chiziqsizlik singari tushunchalar. Sinergetika –o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi. Xaosning eng oddiy turi – «kichik o'lchamli xaos». Turbulent rejimda vaqt va fazo ko'rsatkichlari. Tartib va xaos tushunchalarini ijtimoiylashtirish oqibatlari.

Olamning relyativistik konsepsiyasi. Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi relyativistik kosmologiyaning ustuvorligi. Hozirgi «ko'p sonli dunyolar» konsepsiyalari.

FAN FALSAFASI VUJUDGA KELISHINING BIRINCHI BOSQICHI

Fan falsafasining g'arb falsafasi yo'nalishi sifatidagi obrazi. Fan falsafasi mustaqil yo'nalish sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida ilk pozitivistlar

faoliyatida. Fanning rivojlanishi xususidagi ikki qarama-arshi mantiqiy-konseptual sxemalar. Kumulyativ model bilish jarayonini muttasil boyitib boruvchi va haqiqatning universal va mavhum idealiga uzluksiz yaqinlashuvchi jarayon sifatida. Kumulyativ model fan rivojlanishining bevosita ob'ekti haqida. Fan rivojlanishining antikumulyativda modeli me'yorlar, qonunlar va andozalarni, bilimlar tizimlarini butunlay o'zgartirishi.

Pozitivizm da fan erishgan yutuqlarning madh etilishi. XIX asr mobaynida ko'pgina fanlar o'z rivojlanish jarayonining cho'qqisiga ko'tariladilar va undan oshadilar.

Pozitivizmning dasturilamal darajasiga ko'tarilgan umumiy talablar.

Jon Styuart Mill pozitivizm asoschisi. Millning hissiyot, tafakkur va ongning holatlari haqidagi mulohazalari.

Ogyust Kont «Pozitiv (ijobiy) fan» konsepsiyasining asoschisi. Kontning «Pozitiv falsafa ruhi» asarida «pozitiv» tushunchasining besh xil ma'nosi. Kont e'lon qilgan yangicha tipdagi falsafa.

Kont inson donishmandligining ob'ektiv asosi haqida.

G.Spenser konsepsiyasida tadrijiy, yassi evolyusionizm va *evolyusion taraqqiyot* g'oyasi O'sib boruvchi strukturaviylik g'oyasi Spenser konsepsiyasining asosi.

FAN FALSAFASI RIVOJLANISHINING IKKINCHI BOSQICHI

XX asr birinchi choragi fan falsafasi rivojlanish jarayonining ikkinchi bosqichi. Jyul Anri Puankare Fan falsafasi ikkinchi bosqichining etakchi namoyandalaridan biri. Anri Puankare konvensializm konsepsiyasining asoschisi. Konvensializm (lot. "conventio" – "kelishuv" so'zidan) – olimlar o'rtasidagi kelishuv (konvensiya)ni ilmiy nazariyalar asosi sifatida e'lon qiluvchi yo'nalish. Fanning «ayrim asosiy negizlari» konvensiyalar, shartli qabul qilingan kelishuvlar sifatida tushunilishi. Yevklid, Lobachevskiy va Riman geometriyalari aksiomalarining turli sistemalari konvensializm paydo bo'lishiga zamin yaratgan ilmiy asoslar.

Konvensializmga eltuvchi intellektual yo'l. Konvensializm ta'limoti Nyuton mexanikasi qonunlari tildagi kelishuvlar hisoblanishi.

A.Puankare ob'ektivlik muammosini konvensializm ta'limoti yordamida hal qilishi. Konvensializm antropologizm sari yo'l. Olimning intuitsiyasi ilmiy kashfiyotning eng muhim vositasi sifatida. xossalari bilan cheklanadi.

Konvensializm fanni talqin qilishning muayyan metodologik konsepsiyasi sifatida. Mo'tadil konvensializm ta'limoti. Nazariyalarning qiyosiy emasligi haqidagi tezis konvensializmning bevosita mahsuli.

Max psixofizikasi. «Sezgilar tahlili va fizik hodisalarning ruhiy hodisalarga munosabati» kitobida Max sezgining tabiatini haqida. Sezgilar – barcha jismoniy va ruhiy kechinmalarning umumiy elementlari.

E.Max fanning maqsadi haqida. Max bilish jarayoni muhitga progressiv moslashish jarayoni haqida.

Muammoning yuzaga kelishi haqida Max ta'limoti. Max ijodida tadqiqot jarayonining strukturasi talqini. Tafakkurni tejash tamoyili.

Dyuem (Dyugem) epistemologiyadagi ikki an'anani taqqoslash haqida. Induktivistik metodologiya.

FAN FALSAFASI EVOLYUSIYASINING UCHINCHI DAVRI

Til bilishning neytral vositasi sifatida. Lingvistik burilish Vena to'garagining metodologik dasturi M.Shlik pozitsiyasi Vena to'garagining namoyondalari. (M.Shlik, Neyrat, Gendel, Feykl, Reyxenbax, Frank, Ayer, Nagel, Karnap). R.Karnapning ilmiy bilish dinamikasi modeli.

Bayonli takliflar ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich manbai sifatida. O.Karnap fan falsafasining faoliyati haqida. G.Reyxenbax, O.Neyrat - Vena to'garagining faol ishtirokchilari. Nazariyotchi K.Gempelning dilemmasi va Gedel qarashlarining to'laqonli emasli haqidagi nazariyasi.

Tushuntirishning tahlili. Ilmiy tushunchalarning elementlari. Sababiy va ehtimolli tushuntirish.

Til belgisi reallik sifatida Tajribani sinxronli va diaxronli etkazish usullari. Til olami. Fan tili. Ilmiy nazariya tilining tasnifi. Belgi va ahamiyat. Til va tafakkurning o'zaro aloqadorligi. Tilning paydo bo'lish gipotezasi. Til borlig'i.

TANQIDIYLIK VA RATSIONALIZMNING O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI

(K.Popper). Ilmiy faoliyat normalarining relyativligi. (Mayk Polani) Tanqidiy ratsionalizm. Fanning demarkatsiyasi (chegaralash) muammosi. Verifikatsiyaning muqobili- falsifikatsiya. Fallibilizm tamoyili. Umumiy ma'nodagi tanqidiylik. Ratsionallik tanqidiylikning tavsifi sifatida. Epistemologiya va ijtimoiy falsafaning o'zaro aloqadorligi. I. Lakatosning fallibilizmga bahosi.

Ratsionallikdagi cheklanganlik. K. Popper uch olam haqida. Epistemologiyaning avtonomiyasi. M.Polanining shaxsiy bilim konsepsiyasi. Yolg'on ilmiy bilimni bartaraf qilish. Epistemologiyaning antropologik asoslari. Perifiy (noaniq) bilim. Tafakkur va nutqning o'zaro mutanosibli. Noaniq va chigal tushunish sohalari.

EVOLYUTION EPISTEMOLOGIYA VA EVOLYUTION DASTUR.

TARIXIY EVOLYUTION YO'NALISH

Evolyutsion epistemologiyaning ikki ma'nosi. Evolyutsion bilish nazariyasi va evolyusion fan nazariyasining farqi. Konrad Lorensning bioepistemologiyasi. Jan Piaje va genetik epistemologiya nazariyasi.

Gerxard Follmer gipotetik realizm postulatalari haqida. Stiven Tulminning evolyusion dasturi. Tushunchalarning mohiyati haqida o'zgaruvchanlik muammosi. Intellektual tashabbus. Fan intellektual yo'nalishlarning majmui va professional institut. Ilmiy jamoatchilik ilmiy ratsionalizmning etakchilari.

Fan ilmiy jamoatchilikning faoliyati. Ilmiy jamoatchilik tushunchasi. Normal fan va ilmiy revolyusiya. T.Kun paradigma va uning strukturasi haqida.

Normal fanning progressi. Ilmiy revolyusiyaning belgilari (Simptomlari) Ilmiy maktablar – ilmiy jamoalar va epistemologik jamoatchilik.

5-BO'LIM

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI FAN IJTIMOIIY-MADANIY HODISA

Fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan tarixiga oid yondoshuvlar: prezentizm va antikvarizm, internalizm va eksternalizm, ssientizm va antissientizm. Fan tarixi taraqqiyotining asosiy modellari. Fanning funksiyalari: madaniy funksiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Fanning ijtimoiy tartibga solish funksiyasi. Bevosita bunyodkor kuch sifatidagi fanda neytrallik va ijtimoiy buyurtmaning namoyon bo'lishi. Fan siyosat vositasi. Fanning ijtimoiy kuch funksiyasi. Haqiqiy bilimni yaratish funksiyasi. Mafkuraning fanga munosabati va uning modellari: qoralash; befarqlik; rahnamolik va ekspluatatsiya qilish. Fanning mikrokonteksti va makrokonteksti. Fan taraqqiyotining asosiy omillari: institutsional, intellektual, falsafiy, diniy va estetik omillar. Fanni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar. Fanlarning diffirensiatsiya va integratsiyasi. Fanning ijtimoiy madaniy mo'ljallari.

Fan bilishning maxsus shakli. Fanlar tasnifiga oid qarashlar tarixi. Nomotetik va ideografik metodlar Dinamik va statik qonuniyatlar Fan ilmiylik mezonlarining tarixiyligi. Ilmiylik mezonlarining tasnifi. Bilish me'yorlari va ideallari, dunyoning ilmiy manzarasi. Ilmiy bilimga nisbatan analitik va sintetik yondoshuv. Analitik bilim tafsilotlari. Sintetik bilimda yangi mazmunning yaratilishi. Fandagi izchillik, ishonchlilik, asoslilik, isbotlilik. Ijtimoiy-tarixiy amaliyot haqiqatning universal mezoni. Ijtimoiy, texnikaviy, tabiiy, fundamental, amaliy, nazariy va eksperimental fanlarning o'zaro aloqasi va farqi. Sababiyat va qonuniylik fanning barcha jabhalarida hukm suruvchi fundamental konstanta.

ILMIY TADQIQOTNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Ilmiy tadqiqotning boshqa ijod shakllari bilan aloqadorligi. Ilmiy tadqiqotning xossalari. Texnikaviy tadqiqot. Texnik ijod jarayonining ixtirochilik,

loyihalashtirishda namoyon bo'lishi. Texnikaviy ijodning ratsional va utilitar xususiyati.

Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot. Badiiy ijod ijtimoiy ongning maxsus shakli. Pedagogik tadqiqot. Improvizatsiya pedagogik tadqiqotning ko'rinishi. Pedagogik ijodning xususiy ko'rinishi. Hamkorlikdagi tadqiqot. Zamonaviy ilmiy tadqiqot konsepsiyalari.

Ilmiy tadqiqotda intuitsiyaning roli. Intuitiv bilish darajasi. Intuitsiya – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab etish qobiliyati. Intuitsiya bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli, Intuitiv bilimning ilmiy tadqiqot faoliyatidagi roli.

Intellectual intuitsiya haqidagi ta'limot. XX asr boshida har xil maktablar: Gusserlning fenomenologik intuitsiyasi, Bergsonning intuitivizmi. Freydning ong osti intuitsiyasi. Intuitsiyaning ilmiy tadqiqot jarayoniga ta'siri.

ILMIY TADQIQOTDA INNOVATSIYA VA NOVATSIYALAR

Innovatsiya tushunchasi va uning tahlili. Ilmiy-ijodiy faoliyatdagi innovatsiyalar. "Kashfiyot", "ixtiro" tushunchalarining innovatsion xarakteri. Ixtiro-kashfiyot va innovatsiya o'rtasidagi o'ziga xos "oraliq" holat. Ixtiro muayyan kashfiyot doirasida sodir bo'luvchi innovatsion daraja. Kashfiyot va ixtirolar ijodiy faoliyat natijasi. Insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlar va ixtirolar tasnifi. Innovatsiya yangi ilmiy texnik yutuqlardan samarali foydalanish vositasi. Novatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Novatsiya yangi ilmiy g'oyadagi «eskilik» elementi. Ilmiy-ijodiy faoliyatda innovatsiya va novatsiyalarning o'rni masalasiga oid ilmiy-nazariy xulosalar.

ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA TAMOYILLAR

Metod, metodologiya va metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi: umumilmiy tadqiqot metodlari, xususiy ilmiy metodlar, umumiy mantiqiy metodlar, fan metodlari, empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari. fanlararo tadqiqot metodlari. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadis, abduksiya. Evristika yangi metodologik tamoyil

Metodologik tamoyillar. Muvofiqlik tamoyili. To'ldiruvchanlik tamoyili. Sistemali yondashuv. Modellashtirish tamoyili va o'xshatish metodi Tarixiylik tamoyili. Metayaxlit xossalar – Ad-hoc yaxlit xossalar.

ILMIY TADQIQOTNING TIPLARI

Ilmiy tadqiqot tiplarining tasnifi. Fundamental tadqiqotlar. Fundamental tadqiqotlarda voqelik hodisalari va qonunlari haqida yangi bilim olish imkoniyati. Fundamental tadqiqotlarning ikki turi: erkin va aniq maqsadga qaratilgan tadqiqotlar. Amaliy tadqiqotlar. Amaliy tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati.

Amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirish imkoniyati. Fan va ishlab chiqarish aloqadorligi. Ilmiy tadqiqot faoliyatida vorisiylik va novatorlik. Innovatsion tadqiqotlar. Ilmiy tadqiqot tiplarining o‘zaro aloqadorligi va farqi.

ILMIY TADQIQOT METODLARIGA AXBOROT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING TA’SIRI

Axborot, ma’lumot va bilim uyg‘unligi. Ilmiy tadqiqot jarayonida bilimlar hajmining o‘ssishi. Ilmiy bilimning informativligi. Ijtimoiy axborot. Ijtimoiy axborotni o‘zlashtirishning ahamiyati. Ilmiy axborot - ijtimoiy axborotning bilish faoliyatida foydalaniladigan alohida turi. Informatika. Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi. Texnologiya va texnikani o‘zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiyta’siri.

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari. Fanlar tutashgan joyda ilmiy bilimning integral sohasi. Informatika ilmiy bilimning o‘ziga xos sohasi.

TUSHUNISH VA TUSHUNTIRISH

Tushunish va uning bilish bilan o‘zaro munosabati. Hozirgi adabiyotlarda tushunish turlari, tiplari va darajalari. Germenevtik doira. Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish. «Ma’no» tushunchasining talqini. Semiotika (yunon. belgi, alomat) – belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o‘rganuvchi fan. Simvol (yunon. – ramz, shartli belgi) – bu: 1) fanda (mantiq, matematika va b.) belgi; 2) san’atda – ilohiy obrazning uni anglash, ifodalash yoki muayyan badiiy obraz nuqtai nazaridan tavsifi. Ijtimoiy bilishda dialog.

Ilmiy tushuntirishning deduktiv-nomologik modeli. Teleologik yoki intensional tushuntirish. Tushuntirish va tushunishning o‘zaro nisbati. Tushunish ma’naviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi.

OLIMNING IJTIMOIIY MAS’ULIYATI

XXI asr fanining obrazi. Fan muayyan odamlar – olimlar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turi. Olim faoliyati yo‘nalishlari.

Hozirgi zamon olimining muassasa va mafkuraga munosabati. Olim portretida haqiqatni hamma narsadan ustun qo‘yish tamoyilinnig ustuvorligi. Bilim – hayotning oliy in’omi, haqiqat har qanday e’tiqodlar, mafkuralar va jamoatchilik fikridan muhim ekanligi. Olimning vazifasi haqiqatni targ‘ib qilish. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta’minlash shakllari. Muloqotning eng qulay va keng tarqalgan yo‘li – olimlarning ilmiy asarlarini e’lon qilish. Olimning intuitsiyaga tayanishi va bu bilan o‘zining oqilonalik chegarasidan chetga chiqishi. Professionallashtirish va ixtisoslashuv jarayonlarining kuchayishi. J.Xolton A.Eynshteyn olimni harakatlantiruvchi omillar haqida. Olimning tadqiqot ob’ekti yaxlit va to‘laqonli ekanligiga ishonchi.

Olimning mehnati va konsensus, ya’ni murosaga kelish muammosi. Konsensusga erishishning darajalari: paradigma darajasi; ilmiy tadqiqot dasturi

darajasi; maktablar va yo‘nalishlar darajasi; individual qarorlar va kelishuvlar darajasi.

F.Frank olimning mehnati haqida. Hozirgi zamon olimining portretiga Maks Veber taklif qilgan chizgilari. Ilmiy elita va intellektuallar ilmiy muhitning alohida tipi. Ilmiy elita va intellektuallar – intellektual mulk bunyodkorlari. Superintellektual elita - Nobel mukofoti sohiblari.

Intellektual elita tipologiyasi. Prometeylar –yangi tushunchalar, nazariyalar, yangi fikrlash uslublarining bunyodkorlari. Sintetiklar umumlashtiruvchi xususiyatga ega kashfiyotlar qilishga moyillar guruhi. Intellektual elita faolligining ikki davri. Intellektual elita – ziyolilarning tug‘ma emas, balki funksional tipi. Intellektual elitaning ontopsixologiyasi. Ijtimoiy mas‘uliyat tushunchasi va uning zaruriyati. Olimning ijtimoiy mas‘uliyati insoniyatning tur sifatida saqlab qolishning bosh omili. Olim ijtimoiy mas‘uliyatining uch jihatli. Professional va ijtimoiy mas‘uliyat uyg‘unligi. Konformizm yo‘li. Olimning mehnati va konsensus. Konsensusga erishish darajalari, Koinot va tabiatning azaliy muammolari. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta‘minlash shakllari. Oqilona qobiliyatlarning haddan ortiq rivojlanishi. Fan tarixchilari professionallashuv jarayoni. XX asr fanida havaskorlar va diletantlarning o‘rni.

6-BO‘LIM. MANTIQ

MANTIQ FANINING PREDMETI VA AHAMIYATI

Tafakkur — mantiq ilmining o‘rganish ob‘ekti. Tafakkurning asosiy xususiyatlari.

Tafakkurni o‘rganishga turli xil yondashishlar.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari haqida tushuncha. Tafakkur shakli (mantiqiy shakl) tushunchasi. Fikrning aniq mazmuni va mantiqiy shakli, ularning nisbiy mustaqilligi va o‘zaro aloqasi. Tafakkur qonuni (mantiq qonuni) tushunchasi. Tafakkur qonuni-fikrlar (fikrlash unsurlari) o‘rtasidagi zaruriy aloqa. Tafakkur qonunlari to‘g‘ri fikr yuritishning muhim tamoyillari sifatida. Fikrning chinligi (xaqiqatligi) va uning shakl jixatdan to‘g‘ri qurilishi.

Logika fanining predmeti. Logika — tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Formal mantiqning predmeti va tuzilishi, uning dialektik mantiq va matematik mantiq bilan o‘zaro munosabati. Formal mantiqning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni: gnoseologiya, zamonaviy epistemologiya, metodologiya, aksiologiya, germenevtika bilan o‘zaro munosabati. Boshqa fanlar bilan aloqalari: formal mantiq va lingvistika, formal mantiq va informatika, formal mantiq va psixologiya, formal mantiq va pedagogika va boshqalar. Formal mantiqning hozirgi paytdagi vazifalari.

Mantiq ilmining nazariy va amaliy ahamiyati. Mantik fanining fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi, shu jumladan, mustaqil, erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati. Mantik fanining ilmiy ishonch-e‘tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni. Mantik ilmining fan va texnika taraqqiyotiga, mamlakatni modernizatsiyalash jarayoniga ta’siri. Mantik ilmining bilish jarayonida tushunish va tushuntirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani rivojlantirishdagi ahamiyati.

MANTIQ FANI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi. Sharq va Fapb falsafasida mantiqqa oid fikrlarning rivojlanishi. Sofistika va notikdik san’atiga ilmiy yondashish. Sokrat va Platonning tafakkur tabiati va shakllari haqidagi fikrlari. Aristotel - mantiq ilmining asoschisi.

O‘rta asrlarda mantiq ilmi. Yaqin va o‘rta Sharqda, Markaziy Osiyoda mantiqqa oid bilimlarning taraqqiy etishi. Al-Kindiy, Abu Abdulloh, al-Xorazmiylarning mantiqiy ta’limotlari. Forobiyning mantiq fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Ibn Sinoning mantiq fani rivojida tutgan o‘rni. Ibn Rushd yaratgan mantiq ta’limoti. Jurjoniyning mantiqqa oid qarashlari. Yevropa mamlakatlarida nominalizm va realizm tarafdorlari o‘rtasidagi umumiylik masalasi bo‘yicha bahsning mantiqiy ahamiyati.

Yangi davrda (XVII-XIX asrlarda) mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. F.Bekonning induksiyaning bilishning samarali metodi sifatida asoslashi. R.Dekartning bilishda deduksiya va intuitsiyaning ahamiyati haqidagi fikrlari. Leybnisning matematik mantiqni yaratish g‘oyasini ilgari surishi. I.Kantning transsendental mantiqni yaratishi. Gegel — dialektik mantiqning asoschisi. XIX asrda Angliyada induksiya nazariyasining rivojlantirilishi. M.V.Lomonosov, M.M.Karinskiy va boshqa rus mutafakkirlarining mantiqqa oid qarashlari.

XIX asr o‘rtalari - XX asr boshlarida mantiqning rivojlanishi. D.Bul - matematik mantiqning sistemali taraqqiy etishiga asos solgan mutafakkir. G.Fregening matematik mantiq fani tarakkiyotiga qo‘shgan hissasi. XX - asrning o‘rtalari va oxirida mantiq ilmining rivojlanishi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida mantiq masalalarining tadqiq etilishi va mantiqning rivojlanish istiqbollari.

MANTIQ ILMI VA TIL

Til axborot (informatsiya) belgilari tizimi sifatida.

Tilning funksiyalari. Tabiiy va sun’iy tillar. Tilni mantiqiy tahlil qilish tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish vositasi sifatida.

Belgi tushunchasi. Til belgilarining ashyoviy va ma’no jihatdan tavsifi. Tilning semiotik tahlili yo‘nalishlari: semantika, sintaksis, pragmatika.

Tilning semantik kategoriyalari. Fikrlarni formallashtirish tushunchasi. Propozitsional funksiyalar hosil qilish. Deskriptiv atamalar: predmetlar nomlari, predikatorlar, gaplar; mantiqiy atamalar: mantiqiy bog'lovchilar, kvantorlar. Mantiqning formallashtirilgan tilining o'ziga xos xususiyatlari. Predikatlar mantiqiy tili.

TAFAKKURNING UNIVERSAL MANTIQIY SHAKLLARI VA USULLARI. TUSHUNCHA

Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Predmetning xossalari, munosabatlari predmet belgilari sifatida. Predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim belgilari.

Tushuncha - predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl.

Predmetlar sinfi haqida tushuncha. Sinflarning turlari: katta va kichik sinflar.

Sinf unsurlari. Unurning sinfga mansubligi va bir sinfning ikkinchi sinfga kirishi. Tushuncha predmetlar sinfini aks ettiruvchi mantiqiy shakl sifatida.

Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar: tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlash (abstraksiyalash), umumlashtirish va boshqalar. Tushunchalarning tilda ifoda qilinishi. Tushunchalarning bilishdagi ahamiyati.

Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning mazmuni, unda predmetning muhim belgilarining ifoda qilinishi. Tushunchaning hajmi. Tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni.

Tushuncha turlari. Yakka va umumiy tushunchalar. Ayiruvchi va to'plovchi tushunchalar. Mavhum va aniq tushunchalar. Nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalar. Ijobiy va salbiy tushunchalar.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalar. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalar. Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar: moslik, qisman moslik va bo'ysunish. Sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik.

Sinflar (tushunchalar hajmlari) ustida amallar: qo'shish, ko'paytirish, to'ldirish. Sinflar mantiqiy qonunlari.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. Umumlashtirishning mohiyati, uning tushunchalar, kategoriyalarning shakllanishidagi ahamiyati. Chegaralash amaliy va tushunchada ifoda etilgan bilimni aniqlashtirish.

Tushunchalarni ta'riflash (definiitsiya)ning maqsadi va tuzilishi. Nominal va real ta'riflar. Nominal ta'rifning ilmiy terminlarni yaratish, fanning konseptual apparatini rivojlantirishdagi ahamiyati. Aniq real ta'riflar: yaqin jinsi va tur belgisi orqali ta'riflash, genetik ta'rif. Noaniq real ta'riflar: kontekstual ta'rif, induktiv

ta'rif, aksiomatik ta'rif. Ta'riflash qoidalari va ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar.

Ta'riflashga o'xshash usullar: tasvirlash, tavsiflash, misollar yordamida tushuntirish va boshqalar.

Ta'riflashning ilmiy bilish va amaliy muhokama yuritishdagi ahamiyati. Ta'riflashning tushunchalar paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, ilmiy terminologiyaning yaratilishi bilan aloqasi.

Tushunchalarni bo'lishning maqsadi va tuzilishi. Bo'lishning turlari: belgining o'zgarishiga bog'liq holda bo'lish, dixotomik bo'lish. Bo'lish qoidalari va bo'lishda uchraydigan mantiqiy xatolar.

*Turkumlash (klassifikatsiya)*ning mohiyati. Sun'iy va tabiiy turkumlash. Bo'lish, turkumlashning fan va amaliyotdagi ahamiyati.

HUKM. SAVOL. NORMA (ME'YORIY QOIDA)

Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va asosiy xususiyatlari. Hukm va gan. Oddiy va murakkab hukmlar.

Oddiy hukm tarkibi. Oddiy hukmlarning predikat mazmuni, miqdori, sifati bo'yicha turlari. Ajratib ko'rsatuvchi va istisno etuvchi hukmlar. Hukmlar terminlari hajmlarini aniqlash.

Murakkab hukm, uning turlari. Murakkab hukmlarni hosil qiluvchi mantiqiy bog'lamalar.

Biriktiruvchi (kon'yunktiv) hukmlar. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlar.

Shartli (implikativ) hukmlar. Yetarli va zaruriy shart tushunchalari. Ekvivalent hukmlar. Murakkab hukmlarning chin bo'lish shartlari. Murakkab hukmlarni mulohazalar mantig'i tilida ifodalash: formulalar hosil qilish va jadval tuzish.

Modallik turlari va modallik hukmlari. Mantiqiy va ontologik modalliklar.

Aletik modallikning asosiy kategoriyalari: vokelik, zaruriylik, tasodifiylik. Modallik hukmlarining bilishdagi ahamiyati.

Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan hukmlar. Sig'ishadigan hukmlar o'rtasidagi munosabatlar: qarama-qarshilik, mantiqiy bo'ysunish, qisman moslik (subkontrarlik). Sig'ishmaydigan hukmlar o'rtasidagi munosabatlar: zidlik (kontradiktorlik), qarama — qarshilik (kontrarlik). "Mantiqiy kvadrat" tushunchasi va sxemasi.

Savol fikrning maxsus shakli sifatida. Mantiqan to'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan savollar. Savolni to'g'ri qo'yish shartlari. Aniqlovchi va to'ldiruvchi savollar. Sodda va murakkab savollar. Savolga beriladigan javobning turlari: chin va xato javoblar, bevosita va bilvosita javoblar, qisqa va batafsil javoblar, to'lik va to'liksiz javoblar, aniq va noaniq javoblar.

Norma (me'yoriy qoida) hatti-harakat qoidalarini ifoda qiluvchi fikr sifatida. Me'yor va hukm. Me'yorning voqelikka bo'lgan munosabatining mantiqiy ifodalanishi.

XULOSA CHIQARISH

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishi: asoslar, xulosa, asoslardan xulosaga mantiqan o'tish (xulosalash). Mantiqan kelib chiqish tushunchasi. Mantiqan zaruriy va ehtimoliy (to'g'riga o'xshash) xulosa chiqarishlar. Xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogiya.

A. Deduktiv xulosa chiqarish. Deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi. Deduktiv xulosa chiqarishda xulosaning asoslardan mantiqan kelib chiqishining zaruriyligi. Xulosa chiqarish qoidalari tushunchasi. Hukmlarning sub'ekt — predikatli strukturasiga hamda hukmlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishlariga asoslangan xulosa chiqarishlar.

Deduktiv xulosa chiqarishning turli xil shakllari. Qat'iy hukmlardan xulosa chiqarish. Hukmlarni o'zgartirish orqali xulosa chiqarish (bevosita xulosa chiqarish): aylantirish, almashtirish, predikatga qarama-qarshi qo'yish. "Mantiqiy kvadrat" buyicha xulosa chiqarish.

Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmning aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Figuralarning maxsus qoidalari. Qisqartirilgan sillogizm (entimema). Entimemadan to'la sillogizmni tiklash. Murakkab sillogizm (polisillogizm) va qisqartirilgan murakkab sillogizmlar (sorit va epixeyrema).

Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish. Shartli va ayiruvchi xulosa chiqarishlar, ularning moduslari. Shartli—ayiruvchi (lemmatik) xulosa chiqarish: konstruktiv va destruktiv dilemmalar.

B. Induktiv xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish tushunchasi. Induksiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarish turlari: to'lik va to'liksiz induksiya.

Tuliq induksiyaning xususiyatlari. Matematik induksiya tushunchasi. *Tuliqsiz induksiyaning* tuzilishi, uning turlari: ommabop induksiya, ilmiy induksiya. Induktiv yo'l bilan hosil qilingan umumlashmalarning muammoligi. Mantiqiy ehtimollik tushunchasi. Induktiv umumlashmalarning asoslanganlik darajalari. *Ommabop induksiyaning* mohiyati. Ommabop induksiya xulosasining ehtimollik darajasini oshirish shartlari.

Ilmiy induksiya va sababiy aloqadorlik. Sababiy aloqadorlikning asosiy xususiyatlari. Sababiy aloqadorlikni aniqlashning induktiv metodlari: o'xshashlik metodi, tavofut metodi, yo'ldosh o'zgarishlar metodi, qoldiqlar metodi.

Statistik umumlashtirish, uning induktiv xarakteri.

Bilishda induktiv xulosa chiqarishning ahamiyati. Bilish jarayonida induksiya va deduksiyaning o‘zaro aloqasi.

V. *Analogiya*. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarishning mohiyati. Analogiya asosida xulosa chiqarish turlari: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi. Qat’iy va qat’iy bo‘lmagan analogiyalar. Qat’iy bo‘lmagan analogiyada xulosa chin bo‘lishi ehtimolligini oshirish shartlari. Qat’iy analogiyada xulosaning ishonchliligi. Bilishda analogiya bo‘yicha xulosa chiqarishning ahamiyati. Analogiya - modellashtirishning mantiqiy asosi.

ARGUMENTLASHNING MANTIQUIY ASOSLARI

Argumentlash, uning ishonch-e’tikodning shakllanishida tutgan o‘rni. Ishontirishning mantiqiy omillari. Asosli muxokama yuritish-ilmiy ishonch-e’tiqod shakllanishining mantiqiy negizi.

Isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tarkibi: tezis, asoslar (argumentlar), isbotlash usuli. Bevosita va bilvosita isbotlash.

Rad etish tushunchasi. Tanqid va rad etish. Rad etish usullari: tezisni rad etish, asoslarni (argumentlarni) tanqid qilish; rad etish usulining puchligini aniqlash. Ilmiy tanqid qilish oldiga qo‘yiladigan mantiqiy talablar.

Isbotlash va rad etish qoidalari. Tezisga va antitezisga oid qoidalar. Tezisga va antitezisga xos mantiqiy xatolar. Asoslar (dalillar) ga oid qoidalar. Asoslarda uchraydigan xatolar: xato asos, asosni oldindan taxmin qilish, asoslarning etarli emasligi, isbotlashda aylana va boshqalar.

Isbotlash va rad etish usuliga oid qoidalar, ularni buzganda uchraydigan xatolar.

Fikrni asoslashda uchraydigan boshqa mantiqiy xatolar: paralogizmlar, sofizmlar.

Mantiqiy paradoks va uning ifodalanish shakllari.

Bahs yuritishning mohiyati va shakllari. Polemika va munozara tushunchalari.

Munozara bahstalar masalalarni muhokama etish va hal qilish metodi sifatida.

Munozara qilish qoidalari. Isbotlash va rad etishning ilmiy bilishdagi ahamiyati.

MUAMMO. FARAZ. NAZARIYA

Muammo va uning bilishdagi ahamiyati.

Muammoli vaziyat tushunchasi. Savol va muammo. Ilmiy muamolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari va hal qilinishi. Jamiyatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida paydo bo‘ladigan muammolarning mantiqiy tahlili. Ilmiy bilishda muammoni hal qilib bo‘lmazlikni aniqlash.

Faraz - bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli. Farazlarning asosli bo'lishining mantiqiy — metodologik shartlari. Faraz turlari: umumiy va xususiy farazlar. Ishchi faraz tushunchasi.

Fanda o'zaro raqobat qiluvchi farazlar. Farazlarni tanlash shartlari. Farazni qurish va uni rivojlantirish bosqichlari. Farazlarni tasdiqlash usullari. Eksperimentning farazlarning ishonchliligini ko'rsatishdagi ahamiyati. Farazlarning tasdiqlanish darajasini ehtimoliy baholash. Farazni isbotlash usullari. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida asosli farazlarni yaratish va isbotlashning mantiqiy vositalarini samarali qo'llashning zarurligi.

Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida. Ilmiy nazariya, uning maqsadi, tuzilishi va funksiyalari. Qurilish metodi bo'yicha ilmiy nazariyalarning turlari. Gipotetik-deduktiv nazariyalarning mohiyati va tuzilishi. Aksiomatik tarzda qurilgan nazariyalar.

Mantiq fanining ilmiy bilimlarni taraqqiy ettirish, tizimga solish va asoslashdagi ahamiyati.

DIALEKTIK LOGIKA

Dialektika tafakkur taraqqiyotining mantiqiy shakllari va qonunlarini o'rganuvchi metod. Tafakkurning shakllanishi. Mifdan Logosga o'tishning mohiyati. Tafakkurning mazmuni va shakli birligi. «Tafakkur strukturasi» va «tafakkur taraqqiyoti» tushunchalari. Tafakkur taraqqiy etib boruvchi bilish hodisasi sifatida. Bilish taraqqiyoti davomida tafakkur strukturasi o'zgarib borishi. Tafakkurning mantiqiy shakllarining nisbiy turg'unligi va o'zgaruvchanligi, apriorligi va aposteriorligi.

TAFAKKURNING DIALEKTIK METODINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Qadimgi davr falsafasida dialektikaning haqiqatni bilish metodi sifatida shakllanishi. Aristotel dialektikasi va “Organon”i.

Yangi davrda ilm fanining rivojlanishi. Eksperimental fanlar va ilmiy-nazariy bilimlarning shakllanishi, ularning mantiq fani rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri. Yangi davr falsafasida mumtoz (klassik) mantiqni takomillashtirishga bo'lgan urinishlar. Hegel dialektik mantiq asoschisi. Dialektik metodning asosiy prinsiplari. Ichki ziddiyatlarni ochish o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini tushunib etishning mantiqiy usuli sifatida. Predmetni ob'ektiv tarzda o'rganish-dialektik metodning muhim talabi. Abstraktlikdan konkretlikka qarab borish, tarixiylik va mantiqiylik prinsiplari. Dialektik metod prinsiplarining ilmiy bilish va amaliy faoliyatdagi ahamiyati.

NAZARIY BILISHNING MANTIQIY SHAKLLARI VA ULARNING O'ZARO ALOQASI

Kategoriylar (nazariy tushunchalar) tafakkur shakllari sifatida. G'oya va uning bilimlar taraqqiyotida tutgan o'рни.

Milliy g'oyaning mantiqiy strukturasi va mazmuni. Faraz nazariy bilimlar mavjudligi va taraqqiyotining mantiqiy shakli sifatida. Nazariyaning tafakkur shakli sifatidagi mohiyati. Nazariy bilishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi. Muammo bilmaslikdan bilishga, tushim bilimlardan ishonchli bilimlarga o'tishning mantiqiy vositasi sifatida. Muammoning shakllanishi. Muammoni qo'yish va bilish vazifasini aniqlash. Nazariy muammo, savol va masalaning o'zaro dialektik aloqadorligi.

ILMIY NAZARIYANING MANTIQUIY STRUKTURASI, SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ilmiy nazariyaning maqsadi va vazifalari. Ilmiy nazariyaning shakllanishi va strukturasi. Ilmiy nazariyaning boshlang'ich asosi (boshlang'ich tushunchalari), g'oyasi, natijasi. Ilmiy nazariyaning empirik asosi va formalizmi. Ilmiy nazariyani takomillashtirish va rivojlantirish: mavjud tushunchalar mazmunini aniqlashtirish, yangi tushunchalar kiritish, gipoteza va g'oyalarni qayta ko'rib chiqish va hokazo.

DIALEKTIK LOGIKADA ISBOTLASH MUAMMOSI

Formal va dialektik tarzda isbotlash tushunchalari. Nazariy xulosalarni tajriba natijalari bilan solishtirish. K. Popporning sinab ko'rish va xatoga yo'l qo'yish metodining mohiyati. Dialektik isbotlash xulosalarning chinligini doimiy tekshiribturishdan iborat jarayon sifatida. Dialektik isbotlashda tasdiqlash va tushuntirishningtutgan o'рни.

ABIYOTLAR RO'YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – B. 56.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 592 b.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 78 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

Asosiy adabiyotlar;

1. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T.: O'FMJ, 2004.
2. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: Universitet, 2005.
3. Falsafa asoslari. Nazarov Q tahriri ostida. – T.: Sharq, 2005.
4. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. – T.: Sharq, 2005.
5. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida. – T.: UFMJ, 2006.
6. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi – T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
7. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya – bilish falsafasi. – T.: "Noshir", 2011.
8. Емирова Е., Стрелсова А. Введение в философию. – Т.: Университет, 2008
9. Файзуллаев О. Фалсафа ва фан методологияси. – Т.: 2006.
10. Алексев П.В., Панин А.В. Философия. – М., «Проспект», 1998. – С. 568.
11. Абдуллаева М.Н., Покачалов Г, Философские проблемы методологии науки. – Т., 2006. – Б. 10-12
12. Кохановский В.П. Философия и методология науки. – М., 1999.
13. Qo'shoqov Sh.S. Dialektika rivojlanish konsepsiyasi. – S., 2000. – B. 86.
14. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. – Toshkent, Noshir, 2013. – 720 b.
15. Qo'shoqov Sh.S. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – S.: SamDU, 2014.
16. Turaev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyatlari. – T.: Tafakkur. 2011. – B. 211.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Аристотел. Сочинения В 4-х томах. – М.: 1975. ч.1.
2. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
3. G‘arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2005.
4. Falsafa ensiklopedik lug‘at. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2011.
5. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
6. Новейший философский энциклопедический словарь. – М.: 2001.
7. Гуревич П.С. Основы философии. – М.: 2002.
8. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: “Minxoj”, 2003.
9. Ochildiev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O‘zbekiston, 2004.
10. Choriev A. Inson falsafasi. – Toshkent.: O‘FMJ, 2006.
11. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. – T.: Universitet, 2007.
12. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. – T.: Falsafa va huquq, 2007.
13. Otamurodav S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi. 2008.
20. Mamashokirov S.,
14. Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. – T.: Fan, 2009.
15. Qurbonova L. Borliq falsafasi. – Andijon: ADU, 2009
16. Qurbonova L. Inson falsafasi. – Andijon: ADU, 2009
17. Qahhorova Sh. Global ma‘naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.
18. J.Y.Yaxshilikov, N.Uboydullaeva. “Jadidchilik va Behbudiy”. – T.: “Fan”, 2004.
19. J.Y.Yaxshilikov va boshqalar “Mustaqillik va muhandis-texnik ziyolilar ijodiy faolligi muammolari”. – Toshkent, 2007.
20. J.Y.Yaxshilikov N.E. Muxammadiyev “Milliy g‘oya va mafkura”. – T.: “Fan”, 2015. – 272 b.
21. J.Y.Yaxshilikov N.E. Muxammadiyev “Milliy g‘oya taraqqiyot strategiyasi”. – T.: “Fan”, 2017. – 550 b.
22. Bozarov D. Sinergetik paradigma. – T.: Tafakkur, 2010.
23. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojida o‘rni. – T.: “Star - Poligraf”, 2010.
24. Allayarova S. Badiiy ijod germeneytikasi. – T.: Universitet, 2011.

Internet resurslari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.philosophy.ru.
3. <http://www.intencia.ru>.
4. <http://www.anthropology.ru>
5. <http://www.ido.rudn.ru>.
6. <http://www.filosofia.ru>.
7. <http://www.falsafa.dc.uz>.
8. <http://www.phenomen.ru>.
9. <http://www.lib.ru/filosof>. <http://www.filam.ru/sait.php>.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100